

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HARAKAT TARZI (AKSIONSART) KATEGORIYASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Munisa Karimova Yaxyoyevna

Samarqand davlat chet tillar instituti

“Ingliz tili grammatikasi” tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolaning ushbu qismida ingliz va o'zbek tillarida harakat tarzining ifodalanishi chog'ishtirma tahlil qilingan. Ingliz tilidagi posleloglar va o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning harakat semantikasini o'zgartirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, har ikki tilda davomiylik, iterativlik, terminativlik va natijaviylik kabi harakat tarzi turlarining hosil bo'lish faktorlari (zamon shakllari, ravishlar, predloglar) misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ko'makchi fe'l, poslelog, chog'ishtirma tahlil, analitik birikma, iterativlik, terminativlik, natijaviylik.

Annotation: This section of the article provides a comparative analysis of the expression of Aktionsart in English and Uzbek. It highlights the role of postpositions in English and auxiliary verbs in Uzbek in altering the semantics of an action. Furthermore, the factors influencing the formation of action types such as duration, iterativity, terminativity, and resultativity (tense forms, adverbs, prepositions) are demonstrated through examples in both languages.

Keywords: auxiliary verb, postposition, comparative analysis, analytical compound, iterativity, terminativity, resultativity.

Аннотация: В данной части статьи представлен сравнительный анализ выражения действия в английском и узбекском языках. Подчеркивается роль послелогов в английском языке и вспомогательных глаголов в узбекском языке в изменении семантики действия. Также на примерах иллюстрируются факторы (временные формы, наречия, предлоги), формирующие такие типы действия, как непрерывность, итеративность, завершенность и следствие в обоих языках.

Ключевые слова: вспомогательный глагол, послелог, конъюнктивный анализ, аналитическое сочетание, итеративность, терминативность, консеквенциальность.

Tilshunos olim G. Verkyul harakat tarzi (aksionsart) tarkibiy kategoriyalari gapning yuqori cho'qqisiga taalluqli, degan xulosaga keladi. Bunda gap boshqa kontekst ko'rsatgichlari keng miqyosda faollashadi. G. Verkyul aspektuallik perfekt va perfekt bo'lmagan (tugallangan va tugallanmagan) aniqlash imkonini beradigan formulalar tuzgan edi. Bu qarama-qarshilik fe'llarni semantika nuqtai nazaridan tasniflashga asoslangan.

Ingliz tilida ko‘p ma’noli fe’llar harakat tarzi odatda posleloglar ma’nosi bilan bog‘liq omillarga asoslanadi. Bunda, fe’l va poslelog birikmasining butun ma’nosini aniqlash orqali harakat tarzi turi talqin qilinadi. Ingliz tilida ham sanoqli bo‘lsa-da, ko‘makchi fe’llar mavjud bo‘lib, ularning yetakchi fe’l bilan birikishida hosil bo‘ladigan analitik birikma grammatik shakl sifatida baholanadi. Ingliz tilida fe’llarning funksional va metonimik o‘zgarishlari fe’lning leksik ma’nosiga majburiy ravishda keltirilgan ko‘p ma’nolik tarzida baholanishi mumkin. Chunki, bitta poslelog fe’lning ma’nosini tubdan o‘zgartirishi va harakat tarzi turining farqlanishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, ko‘p ma’noli fe’l analitik shaklda, odatda polisemantik tarzda ta’riflanadi. Masalan: I walked through the TWA tunnel, like an endless arched gullet or a corridor in an expressionistic film, and then I was searched for weapons and got on a plane to Houston [Saul Bellow Humbolt’s Gift. 192 p]; Unfortunately, the messages he gave me did not suit the plush occasion. Or did it? "Urbanovich is going along with Denise and Pinsker. The court says you must post a bond. The figure is two hundred thousand dollars [Saul Bellow Humbolt’s Gift. 178 p]; Maydachi uning bo‘ynidan arqonni yechib qo‘yib yubordi. Buqa jindek yurib oldingi ikki oyog‘i qaltirab munkib ketdi. To‘rt kishi uni turg‘izib olib chiqib ketishdi [Said Ahmad “Ufq”, b.

Harakat va holat qarama-qarshiligi tilda ikki sinfga mansub fe’llar qarama-qarshiligi sifatida namoyon bo‘ladi: chegaralanganlik va chegaralanmaganlik turlicha turlarga mansub. Ingliz tilida bu ifodalovchi fe’llar mazmunini qarama-qarshi qo‘yish orqali ifoda etiladi. When Roger was at nursery school I walked in the back streets or went to the Prado or sat in cafes. I devoted long hours to Steiner meditation and did my best to draw close to the dead – chegaralanmagan mazmun [Saul Bellow Humbolt’s Gift. 222 p]; I walked him to the train but he told me nothing more. He sprang into the antique Dinkey car. He wagged his fingers at me through the dirty window - chegaralangan mazmun. And he left [Saul Bellow Humbolt’s Gift. 11 p].

O‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llar ko‘p funksional xususiyatga ega hisoblanadi. O‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’l vazifasidagi har qanday aksional guruh fe’llarining aksional xususiyatlariga va ular hosil qiladigan aspektual ma’nolariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu qardosh bo‘lmagan ikkala tildagi chegaralanmagan fe’llar bildiradigan harakat tarzi turlari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ifodalanish usuli turlicha. Lekin, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lganidek, ushbu harakat tarzi turlarining hosil bo‘lishida rol o‘ynaydigan faktorlar ham bir-biridan farqlanadi. Boshlang‘ich va terminativ harakat tarzi ingliz tilida harakat tarzi zamon shakli bilan birga fe’l semantikasi va kontekstdagi substantiv+predlog hamda ravishlar ta’sirida hosil bo‘ladigan bo‘lsa, o‘zbek tilida esa yetakchi va ko‘makchi fe’llar ifodalanishida ko‘makchi fe’llar va zamon shakllarining roli katta. Aniq tillardagi aksional xususiyatlarni tillararo chog‘ishtirish juda muhim hisoblanib, bu tillararo aksional tasniflashni barpo qilish, fe’llarni sinflarga taqsimlashga doir



tillararo qonuniyatlamini yaratishda sezilarli siljishga olib kelishi mumkinligini SG Tatevosov aytib o'tadi. [2]

Umuman olganda ingliz va o'zbek tillaridagi chegaralangan fe'llar bildiradigan harakat tarzi turlari o'xshash tomonlari va farqlari quyidagilardan iborat: a) davomlilik ingliz tilida ham o'zbek tilida ham chegaralanmagan xususiyatli fe'llarning kontekst konkretizatorlarisiz va shuningdek, davomli tus-zamon shakli yordamida hosil bo'ladi. b) tugal nuqtaga intilgan durativlik ingliz tilida slowly ravishi, harakatning tarzini bildiruvchi sifatlash va along, toward lokativlik predloglari ta'sirida namoyon bo'lsa, o'zbek tilida harakat tarziga ta'sir etuvchi to'liqsiz fe'llar, ko'makchi fe'llar, ravishlash, ravishlar predikatning turli funksiyasida kelishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. v) inchoativ va ingressivlik ingliz tilida sub'yekt o'zi joylashgan makonni tark etishini bildiradigan chegaralangan xususiyatli fe'l ma'nolari bilan ifodalansa, o'zbek tilida ham makonni tark etishni bildiradigan, dinamik harakatni ifodalovchi fe'llar hamda ket, tashla, qol ko'makchi fe'llari bilan ifodalanadi. g) iterativlik ingliz tilida miqdor ko'rsatkichli ravishlar bilan, o'zbek tilida tur, yur, ko'makchi fe'llarining chegaralangan xususiyatli yetakchi harakat fe'llari bilan birikishi, tez-tez, ba'zan, gohida va boshqa ravishlar yordamida yuzaga keladi. d) terminativlik ingliz va o'zbek tillarida ham o'tgan zamon shaklida hosil bo'ladi. Lekin ingliz tilida in, into, out, to predloglari bilan ifodalanadigan substantiv yakuniy punkt vazifasini bajarsa, up ravishi tugal nuqtani ko'rsatadi. O'zbek tilida bu kabi vazifalar, ya'ni terminativlik ko'rsatkichi faqatgina o'rin holi emas, balki qol, et, ket, bo'l, ol, kel, bor ko'makchi fe'llarining chegaralangan ma'noli fe'llar bilan birikishi natijasida ham yuzaga keladi. e) natijaviy harakat tarzi turi ingliz tilidagi chegaralangan fe'llarning perfekt shakli orqali va ba'zi fe'llarning semasida mavjud bo'lsa, o'zbek tilida esa chegaralangan fe'llarning uzoq o'tgan zamon shakli va qol ko'makchi fe'lining tasodifiylik ma'nosi orqali hosil bo'ladi.

Misol uchun, o'zbek tilidagi yurish harakati fe'l sistemasida "borib kelmoq" birikmasi mavjud (yuqorida bu haqida qisqacha to'xtalgan edik). Mazkur birikma o'ziga xos qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni anglatadi. Lekin, ko'plab o'zbek tili grammatikachilarida ushbu birikma yetakchi ko'makchi fe'l birikmasi tarzida baholanadi. Ammo, e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkala fe'l ham o'z leksik shaklini saqlaydi, shu bilan birga -ib shakli orqali birikib analitik birikma hosil qiladi. Ba'zi hollarda ichki turdagi harakat tarzining birlashishini kuzatish mumkin. Bu hodisa o'zbek tili yetakchi fe'llarining leksik ma'nosini saqlashi bilan bog'liq. Bunda ko'makchi fe'l qo'shimcha semantika beradi. O'zbek tilida harakat, holat, holat o'zgarishi fe'llarining uchallasida ham bir-biriga o'xshash semantik ma'no mavjud bo'lib, bu holatda ko'makchi fe'llar asosiy ma'noni ifodalaydi. Lekin ularning leksik va grammatik ma'nolarining o'zgarishi, ularning aksional xususiyati harakat tarziga ta'sir qiladi. Bu har bir fe'lning harakat tarzini hosil qilinishida o'ziga xos farqlarining borligini ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Verkuyl, H. J. A Young Person's Guide to the Theory of Tense and Aspect, 2001. – P. 45-47
2. Бондарко А. В. Лимитативность как функционально-семантическое поле // Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. – Л., 1987. – С.48-79.
3. Rizayev B.X. Finitiv semali turg'un so'z birikmalari (nemis va o'zbek tillari materialida). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – 175 b.
4. G'.Mirsanov "Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi". Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori. DSc. 2018. – B. 40.